

ILDIZNI BILISH O`ZLIKNI ANGLASHDIR

Qilichova Ozoda Itolmasovna ¹¹ Buxoro viloyat Qorako'l tuman 1-son Politexnikum o'qituvchisiMAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:22.06.2025

Revised: 23.06.2025

Accepted:24.06.2025

Ushbu maqolada millat taraqqiyotida yuksak e'tirofga ega bo'lgan ajdodlarimiz va ularning bizga qoldirgan madaniy va ma'naviy merosining mohiyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, bu merosning o'zligimizni anglashdagi o'rni muhokama qilinadi.

KALIT SO'ZLAR:

Hadis, ma'naviy meros, ilm-fan, "Al-jome' as-sahih", "Al-adab al-mufrad", o'zlikni anglash, axloqiy tarbiya, madaniyat

KIRISH. Darhaqiqat, daraxt ildizsiz bo'lmaganidek, har qanday xalqning ma'naviy yuksalishi, madaniy taraqqiyoti va o'zligini anglashida tarixiy ildizlarga murojaat qilish muhim ahamiyatga ega. O'zbek adabiyoti va ilm-fan tarixida chuqur iz qoldirgan allomalarimizdan ibrat olsak arziydi. Ulardan biri: Buyuk bobomiz Imom Buxoriy to'plab, saralab bergan minglab hadislar, mana, necha asrlardirki, avlodlar uchun qo'llanma bo'lib kelmoqda. Mumtoz adabiyotimizning juda ko'p namunalari, minglab she'rlar, yuzlab dostonlar payg'ambarimiz so'zlari va amallaridan ilhom va oziq olib maydonga kelgan. Hadislar sharhiga bag'ishlangan asarlarning esa sanog'iga yetib bo'lmaydi.

Quyida Imom Buxoriy kitobidan olingan ayrim hadislar bilan tanishamiz. "Al-jome' as-sahih"dan salom berish islom amallaridandir.

Sahoba Ammor aytganlar: " Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lg'aydir:

- ✓ -insofli va adolatli bo'lmoq;
- ✓ -barchaga salom bermoq;
- ✓ -kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq".

Rasululloh sallollohu alayhi vasallamdan bir kishi so'radi: "Islomda eng yaxshi xislat qaysidir?"- dedilar: "Ochlarga taom bermoqlik, tanigan va tanimaganga salom bermoqlik".

Adabiyotshunoslarning fikricha, dastlabki hadisda salom bermoqlikning g'oyat muhim xislat ekanligi uqtirilib, salom berish ahamiyatiga ko'ra ochga taom bergan bilan teng qo'yilmoqda. Ovqat ochni o'limdan asraydi. Salom-chi? Salom o'sha odamga tinchlik, omonlik tilamoqdir. Bu esa xayrixohlik- boshqalarga yaxshilik istamoq bo'ladi. Atrofdagilarga yaxshilik istamoq odamgarchilikning, musulmonchilikning belgisidir. Demak, bir kishi ikkinchi kishiga salom berganida, u o'zida odamgarchilikni asragan bo'ladi. Bunday ibratlar keltirilgan hadislarning har birida bor.

Ma'lumki, Imom Ismoil al- Buxoriy "Al-adab al-mufrad" asari orqali nafaqat hadis ilmining rivojiga, balki axloqiy tarbiyaning shakllanishiga ham katta hissa qo'shgan. Uning "Hadis haqida" yozganlari bugungi yoshlar uchun ibrat maktabidir.

Ulug' insonlar haqida fikr bildirmoq, ularning hayoti va ijodi yo'li haqida mulohaza yuritmoq oson emas. Mana shunday allomalarimizdan yana biri bu Najmiddin Kubroning "Al usul al- ashara" ("O'n usul), "Risolai Najmiddin" asarlarida o'z-o'zi bilan kurashish, gunoh ishlarni qilmaslik, gunoh lazzatini totgan nafsga mag'lubiyat alaminini torttirish, nafsni yengishga va sabr-qanoatli bo'lishga chaqiradi.

Yana bir buyuk allomalarimizdan biri bu Jaloliddin Rumiy, u kishining "Ichingdagi ichingdatur" asari haqida biroz to'xtalib o'tamiz. . Bu asar insonni fikrlashga, fikrlash orqali o'zligini, o'zligi orqali Haqni — Yaratganni tushunishga undaydi. Shuning uchun ham «Ichindagi ichindatur»ga bir marta oshno bo'lgan ko'zi ochiq insonki bor, umrbod undan ayrilmasam, deydi. Chunki asar, avvalo, o'sha inson haqida — siz haqingizda, men haqimda, umuman, hammamiz haqimizda. Bizning o'zligimizni bilishimiz haqida. Axir olamda bundan qiziqarliroq, bundan muhimroq yana nima bor? Mashoyihlar "O'zini bilgan avliyo bo'ladi" deya bejiz aytishmagan. Hazratning o'zi shunday deydi: "Rivoyat qiladilarki, bir podshoh o'g'lini hunarmandlar to'piga qo'shib qo'yibdi. Ular bolaga turli bilimlardan, jumladan, ilmu nujumdan dars berishibdi. Shoh o'g'li butunlay ahmoq bo'lgani holda o'ziga o'rgatilgan narsalarni puxta egallab olibdi. Kunlardan bir kun podshoh uni imtihon qilmoq uchun hovuchiga uzugini berkitib, o'g'liga "Bunda ne bor? " -debdi. Bola "Qo'lingdagi dumaloq, sariq va ichi bo'sh narsadir" degach, hukmdor hayratda qolib "Alomatlarini to'g'ri aytding, ismini ayt" deb buyuribdi. O'g'il "G'alvir bo'lsa kerak" deb javob beradi. Podshoh "Olgan tahsiling sharofati bilan meni hayron etib alomat — belgilarni aniq ayting-u, ammo g'alvirning hovuchga sig'masligiga qanday qilib farosating yetmadi? " -dedi afsus chekib.

Xuddi shunday, — deb davom etadi Rumiy hazratlari — zamonamiz olimlari ham qilni qirq yoradilar, o'zlariga bog'liq bo'lmagan narsalarni juda yaxshi biladilar, ammo o'ta muhim, o'zlari uchun qolgan barcha narsalardan yanada yaqin bo'lganni, ya'ni o'zlarini bilmaydilar. Hamma narsadan yaqin bo'lgan borliq bu — ularning menligi. Mavlono Rumiy insonni, avvalo, ko'zini ochishga va ochilgan ko'zlar bilan o'z mohiyatiga nazar tashlashga

undaydiki, bu bilan ul valiy zot insonning o'zi bir butun olam — kichik olam ekanligini uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'zlikni anglash, avvalo, odamning: ozod, erkin, nodir, ulug' siymoligini anglash va o'zida unga amal qilish sifatlarini shakllantirib borish bo'lsa, bundan tashqari, uning o'ziga xos milliy-insoniy sifatlarini ochib beruvchi etnik, ma'naviy-insoniy asoslarini anglash va ularga amal qilishdan iboratdir. Odamzod o'zini-o'zi anglar ekan, o'zida bor imkoniyatlarini yanada rivojlantiradi. Odam o'zini anglagandan keyin yangi qirralarini ochadi. O'z qadr-qiymati va boshqalarning fikri obyekt sifatida qaralishini inson hayoti davomida to'xtamaydi. Bunda har bir inson o'zligini topish uchun uni to'g'ri yo'lga boshlaydigan ustoz, hamroh yoxud to'g'ri tarbiya bergan ota-onaga muhtoj bo'ladi. Yuqoridagi sabablarsiz odamzod o'zligini anglamasdan oddiy hayot kechirib, o'zidan yaxshi nom qoldirmasdan ketishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyot. Majmua. Akademik litseylarning uchinchi bosqich o'quvchilari uchun. Tuzuvchilar: Boqijon To'xliyev, Tohir Shermurodov, Shoira Isayeva. Toshkent, 2007.
2. Ahmedov Sunnat, Qosimov Begali, Qo'chqorov Rahmon, Rizayev Shuhratilla Adabiyot Umumiy o'rta ta'lim maktabining 5- sinfi uchun darslik, to'rtinchi nashr "Sharq" Nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2020
3. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari) Toshkent, O'zbekiston, 1990-yil, 6-bet
4. Ona tili va adabiyot Abduroziq Rafiyev, Nazira G'ulomova "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2011
5. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008
6. Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. T.: O'zbekiston, 2009. 40 b.
7. Ziyo.com